



VADUD MAHMUDNING CHO'L PON VA ABDURAU F FITRAT  
IJODIGA MUNOSABATI

*Muhammadjonova Go'zalxon*

*Filologiya fanlari doktori, professor*

*Tursunova Nigoraxon Jahongir qizi*

*Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek adabiy tanqidchiligining muhim vakillaridan biri — Vadud Mahmudning adabiy-tanqidiy qarashlari tahlil qilinadi. Xususan, munaqqidning jadidlarimiz va XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalari Abdurauf Fitrat va Cho'lpon ijodiga tanqidiy munosabati hamda zamondosh ijodkor sifatidagi talqinlari tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** adabiy tanqid, poetika, munaqqid, zamondosh, mahorat, uslub, badiiy tahlil, adabiy jarayon.

**Annotation:** This article analyzes the literary-critical views of Vadud Mahmud, one of the prominent representatives of Uzbek literary criticism. In particular, the article analyzes the critic's attitude towards the works of Jadid intellectuals and prominent representatives of early 20th-century Uzbek literature, such as Abdurauf Fitrat and Cho'lpon, as well as his interpretations of them as contemporaries

**Keywords:** literary criticism, poetics, critic, contemporary, mastery, style, artistic analysis, literary process

**Аннотация:** В данной статье анализируются литературно-критические взгляды Вадуд Махмуд, одного из значимых представителей узбекской литературной критики. В частности, в статье анализируется отношение критика к творчеству джадидских деятелей и видных представителей узбекской литературы начала XX века, таких как Абдурауф Фитрат и Чулпон, а также их интерпретация как современников.



*Ключевые слова:* литературная критика, поэтика, критик, современник, мастерство, стиль, художественный анализ, литературный процесс .

## **KIRISH**

XX asr boshlarida yuz bergan yangilanishlar, jadidchilik g'oyalari va munaqqidlar faoliyati o'zbek adabiyotida yangi davrning shakllanishiga asos bo'la oldi. O'zbek adabiy tanqidchiligining shakllanishi va rivojlanishida XX asr boshlarida faoliyat yuritgan munaqqidlarning ilmiy-nazariy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, jadidchilik davrida adabiy jarayon faollashib, badiiy asarlarni baholashda yangi yondashuvlar yuzaga keldi. Bu jarayonda Vadud Mahmud o'zining mustaqil va xolis tanqidiy qarashlari bilan alohida ajralib turadi.

Munaqqid zamondoshlari ijodini baholashda mafkuraviy mezonlardan ko'ra badiiy-estetik mezonlarga tayanib ish yuritgan. Uning ilmiy merosi, o'tgan asrda faoliyat olib borgan Fitrat, Cho'lpon, Ajziy kabi ijodkorlar haqidagi adabiy-tanqidiy qarashlari bugungi adabiyotshunoslikda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shuningdek, uning Cho'lpon va Fitrat ijodiga bo'lgan munosabati o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi — Vadud Mahmudning Fitrat va Cho'lpon ijodiga bo'lgan adabiy-tanqidiy qarashlarini tahlil qilish va ularning ilmiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

## **ASOSIY QISM**

O'zbek adabiy tanqidchiligining rivojida 1920-yillar muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda adabiy jarayon keskin mafkuraviy bosim ostida kechgan bo'lib, ijodkorlar faoliyati turli mezonlar asosida baholangan. Cho'lpon ijodi ham ana shunday qarama-qarshi munosabatlar markazida bo'lgan. Ayrim munaqqidlar shoir ijodini mafkuraviy mezonlar asosida baholab, uning dunyoqarashi va badiiy merosini tanqid ostiga olganlar. Bunday yondashuv badiiy asarni estetik jihatdan emas, balki ideologik nuqtai nazardan baholash bilan xarakterlanadi. Mazkur



sharoitda Vadud Mahmud Cho'lpon ijodini xolis va ilmiy asosda baholagan munaqqid sifatida maydonga chiqadi. U badiiy asarni tahlil qilishda, avvalo, uning estetik qiymati, poetik tuzilishi, til va uslub xususiyatlariga e'tibor qaratadi.

Vadud Mahmud "Turkiston" gazetasida chop etilgan "Buloqlar" to'plamiga yozgan taqrizida Cho'lpon she'riyatini milliy ruh, badiiy va estetik mukammallik ifodasi sifatida baholaydi. "Cho'lponning "Buloqlari" nomli bu maqola-taqrizda ushbu to'plam haqida quyidagi fikrlarini keltirib o'tadi: "...Buloqlar " da o'zbek sezgisi inglaydir, sizlaydir, titraydir. Shuning uchun bu to'n shunday bir to'ndirki, o'zbekning ruhidan, jonidan bitkandir, uning badanini asramoq, qo'rumoq uchun o'z bag'riga bosqondir..." Mazkur taqrizdan ko'rinadiki, Vadud Mahmud Cho'lpon she'riyatini faqat mazmuniy jihatdan emas, balki uning ichki ruhiy qatlamlari orqali baholaydi. U she'rni millat ruhining ifodasi sifatida talqin etib, badiiy asarning estetik ta'sir kuchini birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa munaqqidning adabiy asarga yangicha — estetik va psixologik yondashuv bilan qaraganini ko'rsatadi. Tanqidchi ijodkorning bu to'plamida o'zbek xalqining , milliyliigi, ruhiyati va ichki kechinmalari badiiy ifoda topganini alohida ta'kidlaydi.

Yunus Hoji Maqsudiy "Vadud Mahmud va Cho'lpon " nomli maqolasida Vadud Mahmud Cho'lponning "Tong sirlari " kitobiga so'zboshi yozgani , ammo siyosiy bosim tufayli chop etilmaganini aytib o'tadi. Maqolada Vadud Mahmud Cho'lponning fazlu kamoli ulug'ligini, zabardast shoirligini ta'kidlab, "u muhabbat va sadoqat osmonini nurga to'ldirgan yorug' yulduz", deb ta'riflagan. So'ng "Ko'ngil", "Kishan", "Somon parchasi" she'rlarini tahlil qilaturib, ko'zlariga yosh olgan ekan , degan ma'lumotlar keltiriladi. Munaqqid Cho'lponning "Tong sirlari" to'plamiga bag'ishlangan maqolasida shoir ijodining kamolot bosqichlarini chuqur tahlil qiladi. Unda "Ko'ngil", "Bas endi", "Yer asirlari" kabi she'rlar misolida shoirning badiiy mahorati, falsafiy qarashlari va ichki ruhiy yoritiladi. Bu tahlillar orqali munaqqid shoir ijodidagi ichki evolyutsiyani aniqlashga intiladi. U alohida she'rlar misolida Cho'lpon poetikasining shakllanish jarayonini ochib beradi. Natijada tanqid faqat baholash vositasi emas, balki ijodkorning badiiy tafakkurini anglash usuliga aylanadi.



Vadud Mahmud Cho'lpon ijodini tahlil etishda uning asarlaridagi istiqloq ruhini, poetikasidagi betakror badiiy xususiyatlarni chuqur ochib beradi. Tanqidchi she'rlardagi qofiya, vazn va ohang uyg'unligini estetik mezonlar asosida baholab, ularning badiiy ta'sir kuchini aniqlaydi. U Cho'lponni XX asr adabiyoti osmonidagi yulduz deb baholab, uning she'riyatidagi shakl-mazmun uyg'unligi, milliy ohang va tasavvufiy ruhni anglaganligini isbotlaydi.

Shu bilan birga, u shoir ijodidagi ruhiy kechinmalar va falsafiy qatlamlarni ham nozik did bilan talqin qiladi. Cho'lpon ijodiga bo'lgan adabiy-tanqidiy mulohazalari uning chin munaqqid sifatidagi tabiatini ochib beradi. Vadud Mahmud Cho'lpon ijodini mafkuraviy bosim kuchli bo'lgan davrda ham xolis baholay olgan munaqqid sifatida ajralib turadi. Uning bu yondashuvi o'zbek adabiy tanqidchiligida mustaqil fikr va ilmiy tahlil mezonlarining shakllanishiga xizmat qilgan.

O'zbek adabiy tanqidchiligida Abdurauf Fitrat ijodi bo'yicha adabiy-tanqidiy munosabatlar ijodkor yashagan davrdan avj ola boshlagan. Vadud Mahmud qator maqolalari, Fitrat va uning ijodi xususidagi fikr-mulohazalari bilan o'tgan asr munaqqidlaridan ajralib turadi. Uning maqolalari nafaqat XX asrning 20-yillari adabiyoti, adibning ijodi, balki o'zbek adabiyoti tarixi, hozirgi adabiy jarayonni baholashda va tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Munaqqid Fitrat ijodi xususida xolis ilmiy fikrlar bildirib, "Chin sevish" pyesasining sahnaga qo'yilish munosabati bilan maqola yozadi. Ushbu maqolasida Abdurauf Fitratning pyesasini baholash bilan birga o'zbek teatrining o'sha davrdagi ahvoli haqida fikr bildirgan: "O'zbek sahnasida shu kungacha o'ynab kelingan pyesalarning kuchlisi, eng buyugi o'tkir yozuvchimiz Fitratning hind turmushidan deb yozilgan «Chin sevish» pyesasi ekanligini hamma iqror etsa kerak..." Bu dramaning tahlilida badiiy haqiqat, obrazlar hayotiyliigi, til va xarakter masalalariga alohida to'xtalib o'tadi. Abdurauf Fitrat dramalarini baholashda Vadud Mahmud badiiy haqiqat va hayotiylik mezonlarini asos qilib oladi. U obrazlar tizimi va til xususiyatlarini tahlil qilish orqali asarning ichki strukturasi ochib beradi. Bu esa uning tanqidchilik uslubi nazariy asosga ega ekanini ko'rsatadi.



Vadud Mahmud boshqa zamondosh munaqqidlardek kommunistik g'oyaviylikni bosh mezoniga aylantirmay, xolis olim va haqiqiy san'atkor ko'zi bilan tahlil qilib, san'atning barcha qonuniyatlarini tahlil asosi qilib oladi. Fitratning "Hind ixtilochilari" dramasi tanqidiy tahlil qilgan maqolasida undagi sermazmun hikmatlarni eng katta yutug'i sifatida baholaydi. "Vadud Mahmud : "Fitrat asarlarining bir ortiqchiligi uning eng yuksak va eng mukammal tashbeh, mubolag'a va istioralarga ega bo'lishidir". Dramadagi ayrim personajlar nutqining sun'iyliigi, asar tilining og'irligini yozuvchining kamchiligi deb hisoblaydi. Fitratning bu dramasi adabiyotimizda birinchi o'rinni tutadigan asarlardan deb yuqori baho beradi.

XX asr adabiy tanqidchiligida Abdurauf Fitrat ijodi bo'yicha noto'g'ri talqinlar shakllana boshladi. Abdurahmon Sa'diyning Fitrat ijodiga noo'rin tanqid qilishiga javoban Vadud Mahmud "Adabiy tanqidga bir nazar" maqolasi bilan javob berdi. Munaqqid Fitratning ijodini himoya qilib, asosli dalillar bilan ilmiy izohlab berib, Sa'diyning tanqidi noo'rin ekanligini isbotladi. Vadud Mahmud nafaqat Cho'lpon, Fitrat, balki barcha jadidlarimizning ijodini yuksak baholagan. Abdurahmon Sa'diy maqolasida Fitratni faylasuf deb bilishi, uni shoir deb hisoblamasligi haqidagi dalillarni keltirib o'tadi. Munaqqid "Adabiy tanqidga bir nazar" maqolasida Abdurauf Fitratning ijodini ana shunday noto'g'ri talqinlardan himoya qiladi: "Birinchidan, bu bir adabiy tanqid emasdur. Chunki bunda «adabiy» ma'no otidan hech bir narsa yo'qdir. Tilni, hayotni, ruhni va asosan she'ni tushunmay yuritilgan fikrni adabiy deb aytmoq munosib emasdur. Shu e'tibori bilan bu ilmiy narsa ham emasdur". Tom ma'noda Vadud Mahmudni Fitratning zamondosh himoyachisi deb atashimiz mumkin.

Ushbu adabiy bahslar orqali Vadud Mahmudning ilmiy pozitsiyasi yanada yaqqol namoyon bo'ladi. U tanqidni shunchaki fikr bildirish emas, balki ilmiy asoslangan tahlil sifatida tushunadi. Shu jihatdan uning qarashlari o'zbek adabiy tanqidchiligining metodologik asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Munaqqid va Abdurahmon Sa'diy o'rtasidagi bunday adabiy tortishuvlar



o'zbek adabiy tanqidi rivojiga o'z hissasini qo'shdi hamda o'tgan asrning 20-yillar adabiy tanqidchiligidagi adabiy bahs janrining tipik namunasi bo'la oldi.

Vadud Mahmud o'zbek adabiy tanqidchiligi rivojiga munosib hissa qo'shdi va Cho'lpon, Fitrat, Ajziy kabi yozuvchi, ijodkorlarning ijodini noo'rin tanqid qilishlariga yo'l qo'ymadi. Noto'g'ri talqinlarga javoban o'zining adabiy-tanqidiy maqolalari bilan javob berdi va ularning ijodini tanqidchi ham ijodkor nuqtayi nazaridan ilmiy asosda yuqori baholadi. Vaholanki, Vadud Mahmudning ilmiy faoliyati ham Cho'lpon va Fitrat asarlariga adabiy-tanqidiy taqriz va maqolalar yozishdan boshlangan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Abdurauf Fitrat va Vadud Mahmud zamondosh bo'lishgan va ularning o'rtasida do'stlik munosabatlari bo'lganligi aytiladi. Fitrat ham munaqqidning ilmiy faoliyatini, adabiy-nazariy qarashlarini ijobiy baholaydi. "Adabiyot qoidalari" asarining "El adabiyoti" bo'limida Fitrat haqidagi fikr-mulohazalarini keltirib o'tadi. Vadud Mahmudning yozma va el adabiyoti o'rtasidagi tafovutlar, o'xshash va qarama-qarshi jihatlari, og'zaki adabiyotning o'ziga xos qirralari xususidagi adabiy-nazariy qarashlarini yuksak baho berdi. O'sha davrda Vadud Mahmud yosh olim bo'lishiga qaramay, o'z ustozlari tomonidan munosib baholanganligiga Fitratning asaridagi mulohazalarini ham misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Vadud Mahmudning Abdurauf Fitrat hamda Cho'lpon ijodi bo'yicha ilmiy faoliyati o'zbek adabiy tanqidchiligida hozirgi davr munaqqidlari uchun ilmiy maktab vazifasini bajaradi. Ayrim munaqqidlar tomonidan ularning ijodi yuzaki yoki noto'g'ri talqin qilingan bir davrda u asosli dalillar bilan chiqish qilib, mazkur ijodkorlar merosining haqiqiy badiiy va ilmiy qimmatini himoya qiladi. Xususan, Cho'lpon ijodiga nisbatan bildirilgan sotsialistik va mafkuraviy tanqidlarga qarshi uning she'riyatidagi milliy ruh, estetik mukammallik va ichki kechinmalarni asoslab beradi, Abdurauf Fitrat ijodida esa g'oyaviy teranlik hamda badiiy ifoda vositalarining boyligini ilmiy jihatdan dalillaydi. Bu jihat Vadud Mahmudning nafaqat munaqqid, balki milliy adabiy merosni asrab-avaylash va uni haqqoniy baholashga intilgan yetuk adabiyotshunos sifatidagi o'rnini ham belgilaydi.



Vadud Mahmud adabiy asarlarni tahlil qilish jarayonida bir qator muhim jihatlarga alohida e'tibor qaratgan. Avvalo, u badiiylik va uslub masalasini asosiy mezonlardan biri sifatida baholaydi. Munaqqid fikricha, adabiy asarning qimmati uning tilining nozikligi, uslubining o'ziga xosligi hamda badiiy ifoda vositalarining boyligi bilan belgilanadi. Asar o'quvchining ruhiy olamiga ta'sir ko'rsatib, unda estetik zavq uyg'ota olishi lozim.

Shuningdek, Vadud Mahmud she'riyatda musiqiy ohang va she'r texnikasining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Unga ko'ra, she'rning vazni, qofiyasi va ohangi uning badiiy mukammalligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Bu jihatlarda ayniqsa Cho'lpon va Abdurauf Fitrat she'riyatida yorqin namoyon bo'lib, ularning ijodida musiqiylik va ichki ritm badiiy ta'sir kuchini oshiradi. Shu jihatdan qaraganda, Vadud Mahmud adabiy tanqidni mafkuraviy vositadan estetik-ilmiy tahlil darajasiga olib chiqqan munaqqidlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uning qarashlari nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi adabiyotshunoslik uchun ham muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Vadud Mahmudning adabiy-tanqidiy qarashlari o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixida muhim o'rin tutadi. Vadud Mahmudning Cho'lpon va Fitrat ijodiga bo'lgan munosabati xolis, ilmiy asoslangan va chuqur tahliliy xarakterga ega. Ularning ijodini badiiy-estetik mezonlar asosida baholab, asarlarning badiiy, falsafiy va estetik mohiyatini ochib berishga erishgan. Vadud Mahmudning adabiy-tanqidiy qarashlari o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixida ilmiy va tanqidiy yondashuv namunasi sifatida muhim o'rin tutadi. Uning faoliyati nafaqat Cho'lpon va Fitrat ijodini to'g'ri talqin qilishga xizmat qilgan, balki keyingi avlod munaqqidlari uchun ham ilmiy maktab vazifasini bajargan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nazarov.B. Rasulov.A, Qahramonov.Q, Axmedova.Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. - Toshkent, 2012.
2. Yunus Hoji Maqsudiy. "Vadud Mahmud va Cho'lpon". – O'zAS, 1993.
3. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar. -Toshkent . Ma'naviyat ,2000.



4. Vadud Mahmud. "Cho'loning "Buloqlari" maqolasi. -Turkiston ,1923
5. Vadud Mahmud. Adabiy tanqidga bir nazar. - Toshkent , 1924